Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli tranformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzdorligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashtrish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayevo Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	
Ishlab chiqarish korxonalari tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish.....	1601
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish.....	1606
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
The period of emergence of accounting policy and its significance in preparing financial statements.....	1611
Sayfulloyev Jamshid Qobil o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.....	1615
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya resurslarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan samaradorligi.....	1621
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
Qurilish korxonalari faoliyatida yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish	1625
Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li	
Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1630
Ostonov Muhriddin Bahriddin o'g'li	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llari	1637
Normetov Bobur Sharifboyevich	



TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Normetov Bobur Sharifboyevich

“Mikrokreditbank” ATB Kreditlarni ma’qullash departamenti menejeri

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, unga ta’sir ko’rsatuvchi omillar, moliyaviy barqarorlikni belgilovchi asosiy ko’rsatkichlar va ularning mohiyati yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining rentabellik, likvidlik hamda kapital yetarliligi kabi moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi ko’rsatkichlari tahlil qilingan hamda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning ustuvor yo’nalishlari keltirilgan.

Kalit so’zlar: moliyaviy barqarorlik, tijorat banklari, likvidlik, rentabellik, kapital yetarliligi, zamonaviy bank xizmatlari.

Abstract: This article explores the financial stability of commercial banks, the factors influencing it, and the key indicators that define financial stability and their significance. It includes an analysis of profitability, liquidity, and capital adequacy indicators that characterize financial stability, based on the performance of commercial banks operating in our country. Additionally, the article outlines priority directions for strengthening the financial stability of commercial banks through the implementation of modern banking services.

Key words: financial stability, commercial banks, liquidity, profitability, capital adequacy, modern banking services.

Аннотация: В данной статье освещаются финансовая устойчивость коммерческих банков, факторы, влияющие на неё, основные показатели, определяющие финансовую устойчивость, и их сущность. Также проведён анализ показателей финансовой устойчивости коммерческих банков нашей страны, таких как рентабельность, ликвидность и достаточность капитала, и приведены приоритетные направления укрепления финансовой устойчивости коммерческих банков.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, коммерческие банки, ликвидность, рентабельность, достаточность капитала, современные банковские услуги.

KIRISH

So’nggi yillarda global moliyaviy tizimda yuzaga kelgan inqirozlar tijorat banklarining moliyaviy barqarorlik darajasi yetarli bo’lmagani sababli sodir bo’lgan. Ushbu inqirozlar bank tizimi orqali real sektorga tarqalib, global miqyosda iqtisodiy o’sish sur’atlarining pasayishiga, ishsizlik darajasining ortishiga hamda moliyaviy ishonchning keskin zaiflashishiga olib kelgan. Mazkur holat tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash lozimligini ko’rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va ularni turli xavflarga bardosh bera oladigan darajaga yetkazish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga turli omillar ta’sir ko’rsatadi. Xususan, ichki omillar qatoriga bankning kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati, daromadlilik ko’rsatkichlari, risklarni boshqarish mexanizmlari va menejment samaradorligi kiradi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy muhit, pul-kredit siyosati, moliyaviy bozorlarning holati, tartibga soluvchi organlar faoliyati, shuningdek geosiyosiy vaziyat va xalqaro moliyaviy integratsiya darajasini o’z ichiga oladi. Tijorat banklari amaliyotida moliyaviy barqarorlikka ichki omillar muhim rol o’ynaydi. Bunday omillar bankning o’ziga xos operatsion faoliyati, boshqaruv sifati va moliyaviy ko’rsatkichlari bilan bog’liqdir. Jumladan, kapital yetarliligi bankning yo’qotishlarga bardosh bera olish salohiyatini belgilaydi, likvidlik darajasi bankning qisqa muddatli majburiyatlarni o’z vaqtida bajarish qobiliyatini aniqlaydi, bankning rentabelligi (foydalilik ko’rsatkichlari) esa uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritish uchun moliyaviy zamin yaratadi.

Mamlakatimizda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonuniga 2023-yil 19-aprelda o’zgartirishlar kiritilib, tijorat banklarining ustav kapitali miqdorini bosqichma-bosqich oshirish belgilandi. Xususan, 2023-yilning 1-sentabriga qadar yuz mlrd so’mni, 2023-yilning 1-sentabridan e’tiboran ikki yuz mlrd so’mni, 2024-yilning 1-apreldan e’tiboran uch yuz ellik mlrd so’mni, 2025-yilning 1-yanvaridan e’tiboran besh yuz mlrd so’mni tashkil



etishi qayd etildi [1]. Mazkur choralar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi. Ustav kapitalining bosqichma-bosqich oshirilishi banklarning moliyaviy mustahkamligini kuchaytiradi, ularni moliyaviy tavakkalchiliklarga nisbatan bardoshli qiladi hamda investorlar va mijozlar ishonchini oshiradi. Kapital bazasining kengayishi, ayni paytda, banklarning ko'proq hajmdagi kredit va investitsion faoliyat yuritishiga imkon yaratadi. Bu esa o'z navbatida bank tizimining likvidligi, to'lovga qobiliyatligi va umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy barqarorlik — tijorat banki faoliyatini baholashda qo'llaniladigan asosiy tushunchalardan biridir. Agar bank moliyaviy jihatdan barqaror bo'lsa, u boshqa tijorat banklari oldida raqobatbardosh bo'lib, qo'shimcha resurslarni jalb eta oladi va bozorning ma'lum sohalarida ustunlikka ega bo'ladi [2].

Bankning moliyaviy barqarorligi bank strategiyasi doirasida belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy shartidir. Bu barqarorlik ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi hamda alohida ko'rsatkichlar va bank faoliyatining reyting baholari orqali baholanadi [3].

G.N. Beloglazovaning fikricha, bankning moliyaviy barqarorligi daromadlarning xarajatlardan yuqori bo'lishi orqali belgilanadi. Foyda darajasi bank faoliyatining juda muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bankning moliyaviy barqarorligini aniqlash uchun foydaning qaysi manbalar hisobidan olingani va uning qanday taqsimlangani ma'lum bo'lishi lozim [4].

V.P. Oxapkin bankning moliyaviy barqarorligini bank tizimi sifatida resurslar va xatarlarni transformatsiya qilish qobiliyatini ifodalovchi dinamik integrallashgan xususiyat deb tushunadi. Bu barqarorlik bankning tashqi va ichki muhit omillari ta'siriga bardosh berib, o'z funksiyalarini maksimal samaradorlik va minimal xatar bilan bajarish salohiyatini ifodalaydi [5].

T.P. Nikolayeva esa tijorat bankining moliyaviy barqarorligini, tashqi ta'sirlar xarakteridan qat'i nazar, asosiy va yangi yuzaga kelayotgan funksiyalarni bajara olish qobiliyati sifatida tushunadi [6].

O.V. Goryukova esa zamonaviy sharoitda moliyaviy barqarorlikni bankning moliyaviy holatining asosiy tarkibiy elementi sifatida ko'rsatadi. Bankning barqarorligi va ishonchlilik darajasini aniqlash uchun uning moliyaviy holatini obyektiv va tizimli baholash zarur. Bankning moliyaviy holatini aniqlashda tizimli yondashuv qo'llanilib, u ishonchlilik va samaradorlik darajasini hamda defolt holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning muvozanatli majmuasini o'z ichiga oladi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun O'zbekiston Markaziy banki hisobotlari, banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari va Budjet va moliya vazirligi ma'lumotlari yig'ildi. Ma'lumotlar trend tahlili, koeffitsiyentlar tahlili va solishtirma tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda bankning moliyaviy barqarorligi tushunchasi odatda likvidlik, rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik va kapital yetarliligi kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyatining muvozanatli, barqaror va uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlar

T/r	Ko'rsatkich	Moliyaviy barqarorlikdagi roli
1	Likvidlik	Favqulodda holatlarda ham bankning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlaydi.
2	Rentabellik	Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi; foyda olish orqali kapitalni mustahkamlashga xizmat qiladi.
3	Kapital yetarliligi	Moliyaviy zarbalarga bardoshlilikni oshiradi, tizimli xatarlar oldida bankning barqarorligini saqlashga yordam beradi.



Birinchidan, likvidlik bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Yuqori likvidlik darajasi bankka favqulodda vaziyatlarda ham o'zining kundalik operatsiyalarini to'xtatmasdan olib borish imkonini beradi, bu esa moliyaviy barqarorlikning zaruriy sharti hisoblanadi.

Ikkinchidan, rentabellik – bu bankning daromad keltiruvchi faoliyati, ya'ni uning resurslarni qanday samarali boshqarayotgani va investorlar hamda aksiyadorlar uchun qanday darajada foyda yetkazayotgani bilan bog'liqdir. Bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi aynan uning daromadli faoliyat yurita olishi, ya'ni rentabellik darajasiga bevosita bog'liq.

Uchinchidan, kapital yetarliligi – bu bankning o'z faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy tavakkallarni qoplash imkoniyatidir. Yetarli kapital zaxirasiga ega bo'lgan banklar kutilmagan zararlarni yengillashtira oladi va shu orqali moliyaviy barqarorlikni saqlab qoladi.

Quyidagi 2-jadvalda O'zbekistonning tijorat banklarida rentabellik, likvidlik va kapital yetarliligi kabi ko'rsatkichlarning 2023–2025-yillardagi tahlili ko'rib chiqiladi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi tijorat banklarining rentabellik, likvidlilik va kapital yetarliligi ko'rsatkichlari (1-yanvar jolatiga ko'ra, foizda) [8]

Ko'rsatkichlar nomi	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Likvidlilik ko'rsatkichlari			
Likvidlilikni qoplash me'yori (<i>min. talab 100 foiz</i>)	211,6	164,8	193,8
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (<i>min. talab 100 foiz</i>)	115,6	111,8	115,3
Lahzali likvidlilik me'yori (<i>min. talab 25 foiz</i>)	110,1	87,4	112,3
Kapital yetarliligi ko'rsatkichlari			
Kapital monandlilik darajasi	17,8	17,5	17,4
I darajali kapital monandlilik darajasi	14,5	14,1	14,3
Rentabellik ko'rsatkichlari			
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	2,5	2,6	1,4
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	13,3	14,2	6,6
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	4,3	4,4	4,4
Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati	6,2	6,2	6,4
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	5,1	5,2	5,2
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	4,9	4,9	4,9

Banklarning likvidlik ko'rsatkichlari barcha tahlil qilinayotgan yillarda minimal talab darajasidan ancha yuqori bo'lgan. Jumladan, likvidlikni qoplash me'yori 2023-yilda 211,6 foizni, 2024-yilda 164,8 foizni, 2025-yilda esa 193,8 foizni tashkil etgan bo'lib, bu banklarning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Lahzali likvidlik me'yorining doimiy ravishda yuqori bo'lishi banklar zudlik bilan naqd mablag'larni shakllantirish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Kapital yetarliligi ko'rsatkichlari (kapital monandlilik va I darajali kapital monandlilik) barcha yillarda xalqaro prudensial normalardan yuqori darajada bo'lib kelmoqda. Kapital monandlilik darajasi 2023-yilda 17,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda biroz pasayib, 17,4 foizgacha tushgan. Bu holat tizimda ayrim xavflarning mavjudligini izohlasa-da, umumiy kapital barqarorligi ta'minlanganini ko'rsatadi. Yetarli kapital zaxiralari banklarga kutilmagan moliyaviy yo'qotishlarni qoplash imkonini beradi.

Rentabellik ko'rsatkichlari 2023 va 2024-yillarda nisbatan yuqori bo'lgan bo'lsa-da, 2025-yilda sezilarli pasayish kuzatilgan. Masalan, ROA (aktivlarning daromadlilik) ko'rsatkichi 2,6 foizdan 1,4 foizgacha kamaygan, ROE (kapitalning daromadlilik) esa 14,2 foizdan 6,6 foizgacha tushgan. Bu holat banklarning sof foydasining kamayganligini ko'rsatadi. Bunday dinamika banklar faoliyatining samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga chiqaradi.



Sof foizli daromadlar va foizli marja ko'rsatkichlari tahlil qilinayotgan yillarda barqaror saqlanib qolgan. Jumladan, sof foizli marja 2023–2025-yillar davomida 4,9 foiz darajasida qolgan. Bu banklarning foiz siyosati izchil yuritilayotganini, aktiv va passiv operatsiyalar o'rtasidagi muvozanatni saqlab turganini ko'rsatadi. Shuningdek, sof foizli daromadlarning aktivlar va majburiyatlarga nisbati ham mutanosib tarzda saqlanib kelmoqda. Ushbu holat mamlakatimizda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston tijorat banklari tomonidan xalqaro moliyaviy standartlar asosida risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Bu banklarning tashqi ta'sirlarga nisbatan bardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda bank sektorining modernizatsiya qilinishi va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bank xizmatlarining jadal rivojlanishi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon davomida raqamli transformatsiya, mahsulot diversifikatsiyasi va xavf menejmentining kuchaytirilishi bank tizimining uzoq muddatli moliyaviy mustahkamligini kafolatlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlarining joriy etilishi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarga asoslangan xizmatlar, masofaviy bank operatsiyalari, mobil ilovalar va internet-banking tizimlari bank faoliyatining operativligini, mijozlar bazasining kengayishini va xizmatlar sifati yaxshilanishini ta'minlaydi. Bu esa banklarning daromad salohiyatini oshiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va likvidlik holatini mustahkamlaydi. Shuningdek, zamonaviy moliyaviy texnologiyalar risklarni real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish imkoniyatini yaratib, bank faoliyatining xatarlar qarshisidagi chidamliligini oshiradi.

Fikrimizcha, zamonaviy bank xizmatlari asosida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

Fintex kompaniyalari bilan integratsiyani kuchaytirish;

Sun'iy intellekt va "big data" texnologiyalaridan foydalangan holda mijoz xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda individual mahsulotlar ishlab chiqish;

Sug'urta, lizing va investitsiya xizmatlari kabi qo'shimcha moliyaviy xizmatlarni birlashtirish orqali mijozlar bazasini kengaytirish;

Risk-menejment tizimini avtomatlashtirish (real vaqt rejimida tavakkal monitoringi);

Moliyaviy inklyuziya va mijozlar bilan barqaror munosabatlar o'rnatish.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda asosiy e'tibor raqamli innovatsiyalarni joriy qilish, mahsulot va xizmatlar diversifikatsiyasi, tavakkallarni boshqarish tizimini kuchaytirish, korporativ boshqaruvni mustahkamlash va mijozlar bilan barqaror munosabatlarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Bu nafaqat banklarning ichki moliyaviy sog'lomligini, balki milliy moliyaviy tizimning barqarorligini ham ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy uchta ko'rsatkich – likvidlik, rentabellik va kapital yetarliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Likvidlik bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Yaxshi likvidlik darajasi bankning to'lovga qobiliyatli ekanligidan darak beradi hamda mijozlar ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, likvidlikning yetarli bo'lmasligi bank faoliyatida xavfli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Rentabellik bankning foyda keltirish salohiyatini ifodalab, uning umumiy iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi. Kapital rentabelligi (ROE) va aktivlar rentabelligi (ROA) asosiy mezonlar sifatida qo'llaniladi. Kapital yetarliligi esa bankning risklarga nisbatan barqarorligini ta'minlaydigan asosiy moliyaviy zaxira bo'lib, ushbu ko'rsatkich orqali bank o'z faoliyatini xavfsiz tarzda davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan shu uch ko'rsatkich moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi omillar sifatida banklar faoliyatida doimiy monitoring va tahlilni talab etadi.

O'zbekistonning tijorat banklarida rentabellik, likvidlik va kapital yetarliligi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda banklar moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish va mustahkamlash yo'lida izchil rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2023–2025-yillar davomida banklarning likvidlik darajasi minimal talabdan ancha yuqori bo'lib, qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish salohiyatining yuqoriligi bilan ajralib turadi (masalan, 2023-yilda 211,6 foiz, 2025-yilda 193,8 foiz). Kapital yetarliligi ko'rsatkichlari ham xalqaro standartlardan yuqoriligicha qolib, kapital barqarorligini ta'minlab kelmoqda. Rentabellik jihatidan esa, ROA va ROE ko'rsatkichlari 2025-yilda sezilarli pasaygan bo'lsa-da, bu banklar faoliyatining samaradorligini oshirish zarurligini yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, sof foizli daromadlar va foizli marja ko'rsatkichlarining barqarorligi banklarning moliyaviy siyosati izchil yuritilayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, tahlil natijalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ta'minlanayotganini va bu yo'nalishda tizimli choralar ko'rilyotganini ko'rsatmoqda.



Istiqbolda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xizmat turlarini diversifikatsiyalash va samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Xususan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar ("big data") asosidagi yondashuvlar bank faoliyatining aniqligi va tezkorligini oshiradi. Qo'shimcha moliyaviy xizmatlar – sug'urta, lizing va investitsiya operatsiyalarini birlashtirish esa banklarning daromad manbalarini kengaytirib, mijozlar bilan barqaror aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, risklarni avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish, mijozga yo'naltirilgan yondashuv hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish kabi yo'nalishlar bank tizimi ishonchligini kuchaytiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Zamonaviy bank xizmatlarini tizimli va strategik asosda joriy etish orqali tijorat banklari nafaqat o'z faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki umumiy moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlaydi. Bu esa mamlakatimizda barqaror moliyaviy muhit yaratishning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqidagi 831-sonli Qonuni. 2023-yil 19-aprel.
2. Гаспарян А.Т., Жданова Н.В. Повышение финансовой устойчивости кредитных организаций в условиях финансовой нестабильности // Экономические исследования и разработки. – 2017. – №4. – С. 11-120.
3. Буевич С.Ю. Анализ финансовых результатов банковской деятельности: учебное пособие / С.Ю. Буевич, О.Г. Королев – Москва: КНОРУС, 2014. – 365 с.
4. Белоглазова Г.Н. Банковское дело. / Г.Н. Белоглазова, Л.П. Кроликовецкая – Москва: Финансы и статистика, 2014. – 368 с.
5. Охапкин В.П. О роли финансовой безопасности банковской системы в экономической безопасности государства: методологические основы решения // Актуальные проблемы экономики и права. – 2012. – № 3. – С. 182–189.
6. Николаева Т.П. Финансы банков. Москва: ИЦ ЕФОИ, 2016. – 142 с.
7. Горюкова О. В. Модели финансовой устойчивости кредитных организаций. Москва: Директ-Медиа, 2014. – 250 с.
8. <https://cbu.uz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sahifasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>